

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Turdialiyeva Gulbahor Pardayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi talabasi

Email: abdimannonkocharov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya mavzusida fikr va mulohazalar yuritiladi. Raqamli transformatsiya, bugungi kunda ta'lim tizimida muhim o'rin tutib, barcha yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar bolalarga tabiat bilan tanishtirish fanini o'qitishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu texnologiyalar bolalarning qiziqishini oshirish, bilimlarini kengaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy qilishga yordam beradi. Maqolada maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati, ularni bolalarning bilim olishdagi roli va ta'limdagi yordamchi vositalar shuningdek, raqamli transformatsiyaning ta'limga qo'shgan hissasi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiyalar, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, yangi imkoniyatlar, innovatsion yondashuv, bilimlarini kengaytirish, ta'limdagi yordamchi vositalar

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные педагогические технологии и цифровая трансформация в дошкольном образовании. Цифровая трансформация играет важную роль в современной системе образования, затрагивая все её сферы. В частности, цифровые

технологии в дошкольном образовании создают новые возможности для обучения детей природоведению. Эти технологии способствуют повышению интереса детей, расширению их кругозора и внедрению инновационных подходов. В статье показана важность цифровых технологий в дошкольном образовании, их роль в обучении детей и в образовательных пособиях, а также вклад цифровой трансформации в образование.

Ключевые слова: Педагогические технологии, цифровая трансформация, цифровые технологии, новые возможности, инновационная трансформация, расширение знаний, образовательные инструменты.

INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND DIGITAL TRANSFORMATION IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract: *This article discusses innovative pedagogical technologies and digital transformation in preschool education. Digital transformation plays an important role in the education system today, affecting all areas. In particular, in preschool education, digital technologies create new opportunities for children in teaching nature. These technologies help to increase children's interest, expand their knowledge and introduce innovative approaches. The article shows the importance of digital technologies in preschool education, their role in children's learning and educational aids, as the contribution of digital transformation to education.*

Keywords: *Pedagogical technologies, digital transformation, digital technologies, opportunities, innovative thinking, knowledge expansion, educational tools.*

Kirish. XXI asr – ilm-fan va texnologiyalar yuksalishining yangi bosqichi bo'lib, uni innovatsiyalar asri deb bejizga atashmaydi. Raqamli transformatsiya va globallashuv sharoitida ta'lim sohasiga bo'lgan talablar o'zgarmoqda, yangi yondashuvlar, metod va texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi bugungi kunda zamonaviy, ilg'or tajribalarni o'zlashtirgan holda

rivojlanmoqda. Bolaning dastlabki rivojlanish bosqichi sifatida qaraladigan ushbu davr – shaxs sifatida shakllanish, bilishga qiziqish va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan tabiiy ehtiyojlarining eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida sifatli ta'lim berish va tarbiyalash jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimida ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturining joriy etilishi, tarbiyachilarning malakasini oshirishga qaratilgan islohotlar, AKT vositalarining keng qo'llanilishi – bularning barchasi ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish zaruratidan dalolat beradi. Shu bois, ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzallik jihatlari, ularning turlari va ta'lim samaradorligiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri chuqur o'rganiladi. Maqsad – pedagoglar, tarbiyachilar va ta'lim mutaxassislariga amaliy tavsiyalar berish orqali bolalar bilan ishlash jarayonini zamonaviylashtirish va sifat jihatdan yuksaltirishga hissa qo'shishdir.

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qilinayotgan barcha islohotlardan ko'zlangan maqsad – barkamol insonni voyaga yetkazish, yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta'limning keyingi bo'g'inlari salohiyatni mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi". Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar

bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishadi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o'zgartiradilar.

Ma'lumki, mamlakatning yuksalishiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi hamda ushbu maqsadga erishish yo'lidagi vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'zining ifodasini topgan. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga: "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!" [1], – deb ta'kidlamaganlar.

Asosiy qism. Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirish uchun axborot texnologiyalaridan ta'lim berish jarayonini yanada optimallashtirish, buning uchun esa, o'sib kelayotgan yosh avlod orasida axborot texnologiyalarini yanada ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, turli yoshdagi aholiga Internet tarmog'ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab olgan kompyuter savodxonligi o'quv kurslarini tashkil etish, axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishdan iborat.

Tajribali kreativ pedagog ushbu uslublar asosida o'zining "mualliflik" texnologiyasini yaratishi mumkin. Bunda, unga avval egallangan bilimlari va tarkib topgan dunyoqarashi turtki bo'ladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar yuzaga chiqishi ta'rixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ta'lim jarayoniga kirib kelishida g'oyalar banki muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, italiyalik shifokor Mariya Montessori asli kasbi tarbiya bilan bog'lanmasada, o'zining boy tafakkuri orqali o'ziga xos ta'lim usulini tadbqiq etdi. "Usul har bir bolaning noyoblighi

aksiomaga asoslanadi va ta'lim-tarbiya uchun maxsus yondashuvni talab qiladi. Ta'lim tizimi uch qismdan iborat: o'qituvchi, bola va atrof-muhit" deyiladi uning ta'limotida. Uning nazariyasi uch asosiy tamoyilga asoslangan:

- bolaning maksimal erkinligi, rivojlanish va ta'lim taraqqiyoti va imkoniyatlarini tanlash;
- individual trening dasturini yaratish;
- o'qituvchining minimal aralashuvi va o'quv natijalari bo'yicha an'anaviy avtoritar nazoratning yo'qligi.

Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'limdagi o'rni. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli ta'lim vositalari bolalarning bilim olishini osonlashtiradi, ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar orqali bolalarning mashg'ulot jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Quyidagi raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limda tabiat bilan tanishtirish faniga integratsiyalashishi mumkin:

1. Interaktiv doskalar – Bolalar uchun tabiiy muhitni vizual tarzda tushuntirishga yordam beradi.
2. Mobil ilovalar – O'yin orqali tabiat hodisalarini tushuntirish va tajriba o'tkazish imkoniyatini beradi.
3. Virtual va kengaytirilgan reallik – Hayvonlar va o'simliklarning hayotiy jarayonlarini ko'rish va o'rganish uchun innovatsion imkoniyat yaratadi.
4. Elektron ensiklopediya va o'quv dasturlari – Bolalarga mustaqil ravishda bilim olish va tajribalarni kuzatish imkonini beradi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalardan foydalanish va ulardan o'quv jarayonida faol foydalanish jadal sur'atlar bilan kengayib borayotganiga qaramay, ular bilan to'yingan muhitda murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladiganlar soni o'qitilganlarning faqat kichik qismini tashkil etadi, ammo so'nggi paytlarda yillar davomida ularning soni ortib bormoqda. Ta'lim tizimi ishini shunday

o'zgartirish kerakki, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining umumiy savodxonligi va nostandart masalalarni yechish qobiliyati zamonaviy intellektual kompyuter tizimlarinikidan yuqori bo'lishi kerak.

Xulosa. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta'limiy faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Maktabgacha yosh davrida o'yin ustuvor ahamiyat kasb etganligi bois, bolalar bilan interfaol metodlar o'yin tarzida olib boriladi. Tarbiyachilarni innovatsion ta'limga kirib borishlarida eng maqbul o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish va dastur sifatida joriy etish pedagogik muammo hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi: Daryo yangiliklari
2. Abdullayev, I. (2021). Geometriya kursida ko'pburchaklarni o'qitish metodikasi. Academic research in educational sciences, 2(9), 145-148.
3. Matkarimov, J. S. (2024). Prezi saytida taqdimot tayyorlashning dastlabki tushunchalariga oid. international sciences, education and new learning technologies, 1(12), 42- 46.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni: lex.uz